

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida 2025-yil uchun
korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT**

**I. Vazirlikda Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani
to'g'risida umumiy axborot:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlarida belgilangan vazifalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi topshiriqlari ijrosi yuzasidan vazirlikda tizimli ishlar olib borilmoqda:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonlaridan 2025-yil 5-mart kuni bo'lib o'tgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishida belgilab berilgan ustuvor vazifalarni bajarilishini ta'minlash hamda vazirlik tizimidagi barcha rahbarlarning bu boradagi shaxsiy mas'uliyatini oshirish maqsadida:

15-mart kuni, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining navbatdagi Hay'at yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda sohaning dolzarb masalalari, shu jumladan, korrupsiyaga qarshi kurash va shaffoflikni ta'minlash masalalari ham tanqidiy-tahliliy muhokama qilindi.

Jumladan, joriy yilning 5-mart kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning korrupsiyaning oldini olish bo'yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishida qayd etilgan tanqidiy masalalar hamda belgilangan topshiriqlar barcha rahbarlarga yana bir bor yetkazildi.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurash va shaffoflikni ta'minlash tizimida faoliyat yurituvchi barcha rahbar-xodimlarning asosiy vazifasi bo'lishi ta'kidlandi.

Hisobot davrida tizim bo'yicha 142 ta korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarlik qayd etilganligi, davlat xaridlari sohasidagi qonunbuzilish holatlari qayd etildi. Shu sababli davlat xaridlari jarayonlarini shaffoflashtirish hamda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha qat'iy choralar ko'rilishi bo'yicha ogohlantirish berildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, vazirlik markaziy apparatining tegishli bo'linmalari, tizimdagi tashkilot hamda muassasalarga qator dolzarb masalalar yuzasidan topshiriqlar belgilandi.

25-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda tizimda sodir etilayotgan korrupsiyaviy jinoyatlar hamda manfaatlar to'qnashuvining profilaktikasiga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilish o'tkazildi.

Yig'ilishda vazirlik markaziy apparati, Innovatsion rivojlanish agentligi, Bilim va malakalarni baholash agentligi, Oliy attestatsiya komissiyasi, vazirlik hududiy boshqarmalari, tizim hamda oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlarining jami 2 mingdan ortiq rahbar va xodimlari ishtirok etdi.

Yig'ilish natijasiga ko'ra, vazirlik hamda Agentlik o'rtasida "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining kengaytirilgan videoselektor yig'ilishi bayoni" va "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida saqlanib qolayotgan korrupsiyaviy xavflar hamda manfaatlar to'qnashuvi holatlarini bartaraf etish yuzasidan yo'l xarita"si tasdiqlandi.

Yo'l xaritalariga muvofiq, sohaga oid 450 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar xatlovdan o'tkazilib, qonunchilik hujjatlaridagi qarama-qarshiliklar, havolaki normalar hamda huquqni qo'llashda turlicha talqin qilinishi mumkin bo'lgan normalarni o'zgartirish yoki bekor qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqilib, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim etildi.

Talaba va yoshlarning korrupsiyaga qarshi loyihalari, startap va innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tartibi to'g'risidagi Nizom tasdiqlanib, loyihalar bo'yicha tanlovni tashkil qilish, moliyalashtirish, monitoring qilish va rag'batlantirish tartibi belgilandi.

2. Yosh avlod ongiga halollik qadriyatlarini singdirish va korrupsiyaga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida joriy yilning o'tgan davrida jami 250 000 nafar o'quvchi-talabalarning "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasida maxsus onlayn kurslarda o'qitilishi ta'minlandi.

Bundan tashqari, 2025-yilning yanvar oyida vazirlik va uning huzuridagi davlat oliy ta'lim muassasalari korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining 114 nafar xodimi 18 soatlik, sentabr oyida vazirlik markaziy apparatining 137 nafar xodimi 12 soatlik maxsus onlayn kurslarda o'qitildi. Kurslar yakuni bo'yicha xodimlar tegishli sertifikatni qo'lga kiritdi.

3. Korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olish maqsadida aholi, jumladan talaba va ota-onalar o'rtasida turli shakldagi ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazib kelinmoqda.

Jumladan, 2025-yilning oktabr oyida "Korrupsiyaga qarshi kurashish – har birimizning burchimiz!" shiori ostida so'rovnomalar o'tkazildi. So'rovnomalarda jami 18 730 nafar respondent ishtirok etdi.

Ishtirokchilarning 50 foizidan ko'prog'i (51,3%) ta'limda korrupsiya mavjud emasligi yoki unga duch kelmaganligini ma'lum qilgan bo'lsa, qolgan qismi korrupsiyaning ayrim ko'rinishlari saqlanib qolayotganligi haqida fikr bildirgan.

Jumladan, korrupsiya saqlanib qolayotgan yo'nalishlar – turli tanlov va mukofotlarga nomzodlarni saralash jarayonida (23,7%), joriy, oraliq va yakuniy imtihonlarda (13,7%), qoldirilgan darslarni qayta topshirishda (11,3%).

So'rovnomalar natijalarining tahlillaridan kelib chiqib, tizimdagi mavjud korrupsiyaviy xavflar hamda manfaatlar to'qnashuvi holatlarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

4. Talaba-yoshlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida respublika ko'rik-tanlovi o'tkazildi.

Jumladan, 2025-yilning sentabr oyida "Eng yaxshi esselar" respublika tanlovi o'tkazilib, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti talabasi H.Bahromjonova 1-o'rin, I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti Toshkent

shahridagi filiali talabasi Ye.Golikova 2-o'rin, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi Sh.Ro'zimboyeva 2-o'rin, Nukus davlat pedagogika instituti talabasi G.Pirniyazova 3-o'rin va Navoiy davlat universiteti talabasi R.Saidova 3-o'rinlarni egalladi.

G'oliblar pul mablag'lari va maxsus diplomlar bilan taqdirlandi.

II. Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish:

1. Vazirlikda manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, uning oldini olish va tartibga solishning tashkiliy-huquqiy asoslari "O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni asosida amalga oshirilmoqda.

Qonunning 18-moddasi talablariga muvofiq, vazirlik markaziy apparati xodimlari tomonidan taqdim etilgan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi yillik deklaratsiyalar Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'limi tomonidan umumlashtirildi va tahlil qilindi.

O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, 66 ta xodim o'zi yoki yaqin qarindoshlarining ma'lumotlarini noto'g'ri yoki noto'liq taqdim etganligi, 8 ta xodimning ta'sischiligi (boshqaruvi)da 9 ta, yaqin qarindoshlari ta'sischiligi (boshqaruvi)da 109 ta tadbirkorlik subyektlari mavjudligi, vazirlik tizimidagi quyi tashkilot va muassasalarda 11 ta xodimning yaqin qarindoshlari faoliyat olib borishlari (tahsil olishlari) ma'lum bo'ldi.

Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha choralarning yetarliligini ta'minlash maqsadida Odob-axloq komissiyasiga vazirlik tizimidagi quyi tashkilot va muassasalarda yaqin qarindoshlari faoliyat olib borishlari va tahsil olishlarini inobatga olib, tegishli xodimlarga Qonun talablariga qat'iy amal qilishlari zarurligini eslatib o'tish va boshqa choralar taklif etildi.

Jumladan, xodimlarning ta'sischiligi (boshqaruvi)dagi tadbirkorlik subyektlaridagi faoliyatlari to'xtatildi (ayrim xodimlar ishdan bo'shadi).

Shuningdek, markaziy apparat xodimlarining yaqin qarindoshlari ta'sischiligi (boshqaruvi)da tadbirkorlik subyektlari ro'yxati tizimdagi barcha tashkilot va muassasalarga yuborilib, ushbu subyektlar bilan davlat xaridlari sohasida munosabatlarda kirishish ehtimoli paydo bo'lgan taqdirda, amaldagi qonunchilik talablariga qat'iy amal qilinishi yuzasidan topshiriq berildi.

2. Tizimda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida qonunchilikda belgilangan cheklovlarga qat'iy rioya etilishi yuzasidan tushuntirish va targ'ibot tadbirlarini jadallashtirishi maqsadida, joriy yilning 25-avgust kuni vazirlik tizim tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirishda yo'l qo'yilayotgan qonunbuzilishlar, shu jumladan manfaatlar to'qnashuvi holatlari va ularni bartaraf etish hamda oldini olish bo'yicha vazirlik rahbariyati va Bosh prokuratura vakili ishtirokida yig'ilish o'tkazildi.

Mazkur yig'ilish "Hisob palatasining davlat xaridlari doirasida manfaatlar to'qnashuvi va affillanganlik holatlari bo'yicha masofaviy audit natijalari yuzasidan axboroti to'g'risida" mavzusiga bag'ishlandi.

Yig'ilishda vazirlik tizim tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirishda yo'l qo'yilayotgan qonunbuzilish holatlari va ularning kelib chiqishiga

sabab bo'layotgan omillar muhokama qilinib, kelgusida shu kabi holatlarga yo'l qo'yilishini oldini olish bo'yicha vazifalar belgilab olindi.

3. O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni ijrosini tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi yig'ilishining 2025-yil 18-iyuldagi 59-2-son bayoniga muvofiq, Qonun tatbiq etiladigan davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbarlariga manfaatlar to'qnashuvi holatlarini oldini olish hamda bartaraf etish yuzasidan qator topshiriqlar belgilangan.

Mazkur topshiriqlarning ijrosini ta'minlash maqsadida vazirlik tizimida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti xodimi Sh.Xakimovga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 1934-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha vakolatli organ tomonidan bayonnoma tuzilib, tegishliligiga ko'ra, Jinoyat ishlari bo'yicha Yakkasaroy tuman sudiga yuborilgan;

- Farg'ona davlat texnika universiteti xodimi X.Sotvoldiyev "Ibrohimovlar zs" MCHJda 100 foiz ulush bilan ta'sischi sifatida faoliyat yuritib kelayotganligi aniqlangan. Ushbu xodim 2024-yil 10-fevraldan 2025-yil 4-yanvarga qadar O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Muhammad

Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Farg'ona filialida bo'lim mudiri lavozimida faoliyat yuritgan davrda mazkur tashkilot buyurtmachiligida davlat xaridlarining "xarid.uzex.uz" maxsus axborot portali orqali "turniket uskunalarini o'rnatish xizmati ko'rsatish" yuzasidan milliy do'kon shaklida o'tkazilgan xaridda "Ibrohimovlar zs" MCHJ g'oliblikni qo'lga kiritganligi hamda 2025-yil 5-mart kuni 3031372-sonli shartnoma imzolanganligi aniqlangan.

Mazkur holat yuzasidan vazirlik ishchi guruhi tomonidan xizmat tekshiruvi o'tkazilib, natijasi yuzasidan materiallar chora ko'rish uchun Agentlikka taqdim etilgan;

- Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani 3-son texnikumi davlat muassasasi tomonidan amalga oshirilgan davlat xaridlari jarayonlarida ham qonun buzilish holatlari aniqlangan. Mazkur holat yuzasidan ham tegishli o'rganish o'tkazilib, vakolatli organga tegishli materiallar taqdim etilgan;

- Toshkent davlat texnika universiteti buyurtmachiligida "xarid.uzex.uz" davlat xaridlari maxsus axborot tizimi orqali "o'quv binolari uchun parda va boshqa jihozlar xarid qilish" yuzasidan boshlang'ich qiymati 341,7 mln. so'mlik xarid o'tkazilgan.

Ushbu davlat xaridda jami 2 nafar talabgor ishtirok etib, xarid komissiyasi tomonidan 297,2 mln. so'mlik takliflar bilan "Xolis-ansor" MCHJ tanlov g'olibi, jami 307,8 mln. so'mlik takliflar bilan "Burhan teks" MCHJ zaxiradagi g'olib deb topilgan.

Mazkur tanlovlarda davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga zid ravishda o'zaro affillangan ishtirokchilarning qatnashganligi aniqlangan va mazkur holat amaldagi qonunchilik talablariga asosan bartaraf etilgan;

- vazirlik huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi buyurtmachiligida “etender.uzex.uz” davlat xaridlari maxsus axborot tizimiga joylashtirilgan e’lon bo’yicha O’zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to’g’risida”gi va “Raqobat to’g’risida”gi Qonunlari talablari buzilganligi aniqlangan.

Jumladan, jami boshlang’ich narxi 612 mln. so’mlik “Dissertatsiya mavzularini shakllantirish, ro’yxatga olish bo’yicha tizimni texnik-qo’llab quvvatlash, konsalting xizmatini ko’rsatish” yuzasidan eng yaxshi takliflar tanlanishi haqida e’lon joylashtirilgan.

Ushbu tanlovda “OAK Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish markazi” hamda “Insoftlab” MCHJlar o’z takliflari bilan ishtirok etib, xarid komissiyasi tomonidan “OAK Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish markazi” MCHJ 564 mln. so’mlik taklifi bilan g’olib, “Insoftlab” MCHJ esa 600 mln. so’mlik taklifi bilan zaxiradagi g’olib deb topilgan. Bunda, “Insoftlab” MCHJning soliq to’lovlaridan qarzdorligi bo’lishiga qaramasdan O’zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to’g’risida”gi Qonunning 35-moddasi talablariga amal qilinmagan.

Aniqlangan holat yuzasidan vazirlik hamda Toshkent shahar iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan Oliy attestatsiya komissiyasi mas’ullari bilan tushuntirish ishlari amalga oshirildi.

III. Korrupsiyaga qarshi qoidalarni vazirlik shartnomalariga kiritish:

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6313-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida vazirlikning xarid jarayonlari doirasida shartnomaviy munosabatlarga kirishishni rejalashtirayotgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslar bilan tuzilayotgan shartnomalarda majburiy ravishda korrupsiyaga qarshi qo’shimcha shartlar belgilash tartibi yo’lga qo’yilgan.

Bundan tashqari, vazirlik va uning tarkibiy tuzilmalari xodimlari bilan tuziladigan mehnat shartnomasining namunaviy shakli tasdiqlangan. Shartnomada xodimlarga korrupsiyaga qarshi qo’shimcha majburiyatlar ko’rsatib o’tilgan.

IV. Kontragentlarni tekshirish:

Vazirlikda kontragentlarni tekshirish 2021-yil 22-oktabrdagi 443-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tizimida kontragentlarni tekshirish bo’yicha yo’riqnoma” talablari asosida amalga oshirilmoqda.

V. Ishga nomzodlarni tekshirish:

Vazirlikning 2023-yil 21-avgustdagi “O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tanlov asosida ishga qabul qilish jarayonini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi 372-son buyrug’i imzolangan bo’lib, mazkur buyruq bilan vazirlik nomenklaturasiga kiruvchi bo’sh ish o’rinlariga ishga qabul qilishni ochiq tanlov asosida amalga oshirish hamda

tanlov doirasida o'tkaziladigan sinov tadbirlarini Internet tarmog'i orqali real vaqt rejimida kuzatishni nazarda tutuvchi tartib joriy etilgan.

Shuningdek, vazirlikdagi vakant lavozimlarga nomzodlar orasidan yetarli bilim va tajribaga ega, halol, puxta, xolis kadrlarni tanlov asosida saralab olish va ular bilan mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish maqsadida, nomzodlarga nisbatan "Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma" talablari asosida tekshiruv amalga oshirib kelinmoqda. Vazirlik rasmiy veb-saytida ishga qabul qilish, rotatsiya to'g'risidagi e'lonlar va axborotlar doimiy ravishda berib borilmoqda.

Hisobot davri mobaynida 22 nafar nomzodga nisbatan tekshiruv o'tkazildi. Tekshiruv natijalariga ko'ra, 22 nafar nomzodlarning ishga olinishiga to'sqinlik qiluvchi ma'lumotlar aniqlanmadi va ishga qabul qilindi.

VI. Ta'lim va kommunikatsiya:

1. O'tgan davr mobaynida qabul qilingan davlat dasturlari doirasida oliy ta'lim sohasida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, ta'lim tashkilotlarining o'quv dasturlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mavzularni yanada kuchaytirish maqsadida barcha oliygohlar talabalar uchun falsafa fani o'quv dasturida "Korrupsiyaning mohiyati, oqibatlar va unga qarshi kurash mexanizmlari" moduli kiritilib, o'quv jarayoni tashkil qilindi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan birgalikda talabalar uchun mo'ljallangan "Korrupsiyaga qarshi kurashish" maxsus kurs o'quv dasturi ishlab chiqildi.

Vazirlik huzuridagi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining mk.bimm.uz elektron platformasida tizimdagi pedagoglar hamda rahbar kadrlarga korrupsiyaga qarshi axloqiy qadriyatlar, immunitet va toqatsizlikni singdirish maqsadida "Kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya etish, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish" moduli bo'yicha masofaviy malaka oshirish kurslari tashkil etildi (2022-y.).

Ushbu kurslarda o'tgan to'rt yil mobaynida 20 000 nafardan ortiq pedagog va rahbar kadrlari o'qitildi.

2. Hozirgi kunga kelib, vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda 36 ta axborot tizimlari ishlab chiqilgan. Jumladan:

- oliygoh, akademik litsey, kasbiy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'limga qabul jarayonlari raqamlashtirilib, axborot tizimlari (my.edu.uz, my.uzbmb.uz) joriy etilishi natijasida abituriyentlarning vaqtlarini tejash, xarajatlarini qisqartirish hamda ortiqcha byurokratik to'siqlarni oldini olishga erishildi;

- "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi" (HEMIS) joriy etilib, 35 turdagi statistik hisobotlar hamda guruh jurnallari, o'zlashtirish qaydnomalari, dars va imtihon jadvallari, diplom va akademik ma'lumotlar, talabalar va professor-o'qituvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar raqamlashtirildi;

- kasbiy (prof.edu.uz) va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida (emis.edu.uz) ma'muriy jarayonlarini boshqarish axborot tizimlari joriy etildi;

- talabalarga to'lov shartnomalarni elektron shaklda berish, onlayn to'lovlarni amalga oshirish hamda oliygohlar tomonidan to'lovlar monitoringini yuritish bo'yicha "EduBilling" axborot tizimi joriy etildi;

- oliy, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim muassasalarining diplom ma'lumotlari bazasi (diplom.edu.uz) shakllantirildi. Shuningdek, diplom va uning ilovasi hamda kasbga o'qitish bo'yicha sertifikatlarni elektron ko'rinishda shakllantirish tizimi yo'lga qo'yildi;

Ma'lumot uchun: 1991-2020-yillar davomida bitiruvchilarga berilgan 1,5 mln diplom ma'lumotlarining 84 foizi (1,25 mln) raqamlashtirildi.

- oliy va kasbiy ta'lim muassasalarida mavjud bo'sh ish o'rinlari uchun onlayn hujjat topshirish platformasi (vacancy.edu.uz) ishga tushirildi;

- talabalar va ularning ota-onalari uchun qator to'lov tizimlari (Click, Payme, Zoomrad) orqali to'lovlarni onlayn amalga oshirish, shuningdek, stipendiya va kontrakt to'lovi haqidagi ma'lumotlarni onlayn olish imkoniyati yaratildi.

Buning natijasida:

Kontrakt shartnomasini faqat elektron tarzda olish yo'lga qo'yildi, qog'ozda berish yo'q bo'ldi. Shartnomalarni tayyorlash vaqti 70 foizga qisqardi.

Stipendiyani tayinlashdan to'lashgacha barcha jarayon to'liq raqamlashdi. Jarayonlarni shaffof kuzatish imkoniyati yaratildi. Stipendiya hisoblashda inson omili yo'q bo'ldi.

Ijara shartnomasi faqat elektron tarzda tasdiqlanishi yo'lga qo'yildi. Elektron tarzda shartnomalarni verifikatsiya qilish orqali byurokratik jarayonlar 90 foizga qisqardi. Yotoqxonadagi bo'sh o'rinlar to'g'risida talabani xabardor qilish jarayoni avtomatlashtirildi. Yotoqxona o'rinlarini shaffof-onlayn tarqatish joriy etildi. Talabani joylashuviga oid jarayonlar elektron kuzatuv orqali nazorat qilinishi yo'lga qo'yildi. Navbatlar va to'lov bo'yicha adolatli tizim yaratildi.

Shu bilan birga, oliygohlarda "Registrator ofis"lar faoliyati yo'lga qo'yilib, bugungi kunda talabalar va professor-o'qituvchilarga 30 dan ortiq xizmat turlari "Yagona darcha" tamoyili asosida ko'rsatilishi yo'lga qo'yildi.

Kelgusida inson omili aralashuvisiz ko'rsatiladigan xizmat turlari soni bosqichma-bosqich oshirib borilishi nazarda tutilgan.

VII. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar:

Vazirlikning rasmiy veb-saytida (<https://gov.uz/edu>) fuqarolar, shu jumladan vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlar, o'quvchi-talabalar, ularning ota-onalari (yaqin qarindoshlari) hamda chet el fuqarolari tomonidan turli masalalar yuzasidan murojaat qilishlari, shuningdek tizimda mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berishlari uchun qisqa raqamli ishonch telefoni (1006) va oliygohlarga qabul jarayonida faoliyat yurituvchi "Call-markaz" (71-230-64-64) to'g'risida ma'lumot joylashtirilgan.

Shuningdek, veb-saytda vazirlikning murojaatlar hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limlari telefon raqamlari (55-520-08-08 (ichki 156, 282, 179) joylashtirilgan.

Bundan tashqari, sohadagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar, shu jumladan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq masalalar yuzasidan xabarlarni olish uchun vazirlik korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limining https://t.me/eduuzanticor_bot telegram boti va anticor@edu.uz elektron pochta faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Bundan tashqari quyidagi aloqa kanallari ham yaratilgan:

Facebook (<https://www.facebook.com/eduuzofficial/>);

Telegram (<https://t.me/eduuz>);

Instagram (<https://www.instagram.com/eduuzofficial/>).

Hisobot davrida aloqa kanallari orqali xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, boshqa korrupsiyaviy qonunbuzarliklar bilan bog'liq 134 ta murojaatlar kelib tushgan. Shu mazmundagi vazirlikka rasmiy kelib tushgan murojaatlardagi vajlarni o'rganish natijasida, murojaatchilarga javoblar yuborildi.

VIII. Monitoring va nazorat:

Vazirlik va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha belgilangan tartib-taomillar va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan ichki normativ hujjatlar bajarilishi vazirlikning 2024-yil 4-martdagi 58-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tizim tashkilotlari, oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil qilish va ularning natijalarini e'lon qilish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma" talablari asosida amalga oshirilmoqda.

Xususan, vazirlik va uning tizim tashkilotlaridagi korrupsiyaga qarshi talablar va tamoyillarga rioya qilinishi yuzasidan 14 marotaba monitoring, nazorat tadbirlari va o'rganishlar o'tkazildi.

Natijada, aniqlangan 2 ta korrupsiyaviy omillar bo'yicha HMQOga hujjatlar taqdim etildi.

XI. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi:

Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini yanada kuchaytirish bo'yicha kelgusida amalga oshirilishi nazarda tutilgan rejalar:

1. "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasida talabalarni maxsus dasturlar asosida ta'lim olishlarini davom ettirish.

2. Oliy ta'lim muassasalarining mas'ul rahbarlarini moliyaviy hamda korrupsiyaviy sohalar yuzasidan malakasini oshirib borish.

3. Yosh xodimlarni tanlash, tayyorlash va tarbiyalash tizimini kuchaytirish choralarini ko'rib borish, ular uchun huquqiy madaniyat, davlat xizmatidagi mas'uliyat to'g'risida qo'shimcha seminarlarni tashkil etish.

4. Talabalarning professor-o'qituvchilar faoliyati bo'yicha baholarini anonim tarzda berishlari mumkin bo'lgan anonim "Fidbek to'plash" tizimini yo'lga qo'yish.

Bunda, fidbek berish uchun mobil ilovalar yoki maxsus QR-kodlar joriy etish hamda har semestrda umumiy natijalarni tahlil qilib borish.

5. Oliy ta'lim muassasalari o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish reytingini joriy qilish.

6. 2026-yilning I-choragida vazirlik tizimidagi oliygohlarning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari faoliyatini qayta ko'rib chiqish va faoliyatini takomillashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni belgilab olish.

7. Talabalar orasidagi sodir etilgan huquqbuzarliklarni tahlil qilib, profilaktika inspektorlari hamda dekanatlar ishini qayta ko'rib chiqish.

8. Pedagog maqomiga dog' tushiradigan jinoyatlar, ya'ni korrupsiyaga oid jinoyat va xatti-harakatlarni sodir etgan professor-o'qituvchilarni oliy ta'lim muassasalariga ishga qabul qilish va pedagoglik faoliyatini davom ettirish qoidalarini qat'iylashtirish yuzasidan amaldagi qonunchilik hujjatlarini qayta ko'rib chiqish.